

HAMZA LIRIKASIDA ERKAK VA AYOL QAHRAMON NUTQINING
GENDER TALQINI

Abdusalomova Xonzodabegim Farxodjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti magistri.

xonzodabegimfarxodjonqizi@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20214781>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziy she'riyatida lirik qahramon nutqi gender yondashuv asosida tahlil qilindi. Erkak va ayol obrazlari nutqining tafovuti, xususan, ular qanday mavzularda farqli, qaysi mavzularda o'xshash ekanligi, ulardagi o'ziga xos poetik vositalar hamda ifoda usullari tahlil qilinishi natijasida Hamza lirikasida polifoniya-ko'p ovozlilik hodisasi mavjudligi aniqlandi.

Kalit so'zlar. Identitet, gender yondashuv, lirik qahramon, lirik "men", badiiy obraz, ma'rifatparvarlik, poetik tahlil, polifoniya.

Annotation. This article examines the use of poetic devices in the speech of the lyrical protagonist in the poetry of Hamza Hakimzoda Niyoziy, as well as the methods of their artistic expression. Particular attention is given to the differences between male and female speech, analyzing the extent to which they diverge in thematic representation and identifying areas of similarity through a gender-based approach.

Keywords. Identity, gender approach, lyrical protagonist, lyrical "self," artistic image, enlightenment, poetic analysis, polyphony.

Аннотация. В данной статье рассматриваются поэтические средства в речи лирического героя в поэзии Хамзы Хакимзоды Ниязи, а также способы их художественного выражения. Особое внимание уделяется различиям между мужской и женской речью, в частности анализируется их тематическая дифференциация и выявляются сходства в рамках гендерного подхода.

Ключевые слова. Идентичность, гендерный подход, лирический герой, лирическое «я», художественный образ, просветительство, поэтический анализ, полифония.

KIRISH

O'zbek adabiyoti taraqqiyotida muhim o'rin tutgan jadid adabiyoti vakillari, xususan, Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodi o'zining ma'rifatparvarlik g'oyasi hamda ijtimoiy ruhiyati bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, uning lirikasi badiiy yangilanishlarga boyligi bilan ham ajralib turadi. Ijodkor nazmida lirik qahramon orqali o'sha davrning ijtimoiy ziddiyatlari, shaxsning ichki kechinmalari, ruhiyati va uning jamiyat orasidagi o'rni mohirona ochib berilgan.

Avvalo, lirik qahramon atamasiga to'xtaladigan bo'lsak, lug'atlarda bu birikmaga "...muallifning qalb kechinmalarini, o'y-tuyg'ularini ifodalash shakli (lirik subyekt). Terminning o'ziyoq, ya'ni "qahramon" deyilishi lirik qahramon shoirning real "men"i emas, balki uning asosida yaratilgan "men" ekanligini anglatadi"[1] degan tariflarga duch kelamiz. Demak, lirik qahramon muallifning aynan o'zi emas. Bu ikki atama bitta shaxsni ifodalamaydi.

Bugungi zamonaviy adabiyotshunoslikda lirik qahramonni o'rganishda gender yondashuvning ahamiyati tobora ortib borayotgani kuzatilmogda.

Gender yondashuv jahon adabiyotshunosligida keng ommalashib ulgiran, ammo o'zbek adabiyotida so'nggi o'n yillikda rivojlanib kelayotgan yondashuv bo'lib, lirik nutqda erkak va ayol pozitsiyalarini ajratish usuli hisoblanadi. "Lirik she'riyat gender identitet bilan chambarchas bog'liqdir"[2]. Gender identitet tushunchasi inson o'zini qanday gender-jins sifatida his qilishini anglatadi. Adabiyotimizda badiiy matnda ikki jins vakillari nutqining poetik ifoda uslubini bunday yondashuv asosida tahlil qilish muhim ilmiy masaladir. Mazkur maqolamizda Hamza she'riyatida lirik qahramon nutqining poetik talqinini gender yondashuv asosida o'rganishni asosiy maqsad qilib belgilab oldik.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA

O'zbek adabiyotshunosligida Hamza ijodi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan.

Jumladan, N.Karimov, M.Qo'shjonov, B.Qosimov kabi yirik adabiyotshunos olimlar tomonidan asosan Hamza ijodining g'oyaviy-badiiy jihatlariga ko'proq e'tibor berilgan. Lirik qahramon nazariyasi ham bir qator adabiyotshunoslar tomonidan tadqiq qilingan (O.Sharafiddinov, X. Umurov va boshqalar). Lekin lirik qahramonni gender yondashuv asosida talqin qilish zamonaviy yo'nalishlardan biri bo'lganligi uchun bu yondashuv asosida olib borilgan tadqiqot ishlari juda kam hisoblanadi

Mazkur maqolada Hamza she'riyatida lirik nutqni tahlil qilishda bir qancha metod va yondashuvlardan foydalanildi. Xususan, tadqiqotda kompleks yondashuvga tayanildi. Ijodkorning asarlari ijtimoiy-tarixiy kontekstda ko'rib chiqildi. Erkak va ayol qahramon nutqini tahlil etishda qiyosiy-tahliliy metod asosiy o'rin tutdi.

Tadqiqot obyekti sifatida Hamza Hakimzoda Niyoziyning "To'la asarlar to'plami" [5], "She'rlar, pedagogik risolalar, nasriy asarlar to'plami" [6] hamda "Zamon ichra" [7] saylanmasidan olingan she'rlari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbek tilida jins kategoriyasi bo'lmasa ham erkak va ayol nutqida tafovutlar mavjud. Bu tafovutlar, ayniqsa, uslubiy, leksik hamda pragmatik aspektlarda ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ham badiiy adabiyotda, xususan, she'riyatda bu farqlar yanada yaqqol seziladi. Hamza she'riyatida erkaklar tilidan aytilgan she'rlar, yetakchilik qiladi. Shoir she'riyatidagi bunday ijod namunalarida lirik nutq ko'pincha kurashchan, ijtimoiy faollikka ega, mehnatkashlik hamda ma'rifatparvarlikni targ'ib etishi ajralib turishini kuzatishimiz mumkin. Misol uchun, shoirning erkaklar tilidan aytilgan "Biz ishchibiz" she'rini olaylik.

Biz ishchibiz, mehnatchibiz,

Biz ham inson o'g'libiz.

O'ylashaylik bizlar na deb,

Zolim boylar qulibiz?

Ko'rib turganimizdek, ushbu she'rda lirik qahramon nutqidan erkaklarga xos shaxdamlik, mardlik hamda ritorik so'roq orqali ifodalanilayotgan fikrda kurashuvchanlik ruhi akslanmoqda.

Har baloga biz to'g'ribiz,

Qon chulg'agan boshimiz.

Zamon keldi ko'taraylik

Oyoq ostidan boshimiz!

Butun boshli she'r davomida lirik qahramon nutqida ijtimoy faollik hamda tashviqot ruhi yetakchilik qilmoqda. Yoki shoirning quyidagi to'rtligini ko'radigan bo'lsak:

Ol, dehqon o'rtoq, qo'lingga yerni,
Otib tashlagin fatvoyi pirni.
Yashasin firqa yo'l boshchiligi,
Ishchi, dehqonga keltirdi erkni.

Diniy mutaassiblikka qarshi kurashga chorlov hamda o'sha davr siyosiy muhitga kirib kelayotgan yangiliklarga da'vat, chaqiriq natijalarini ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi misralarda lirik "men" individual kechinmani ko'rsatayotgan qahramondan ko'ra jamiyatga murojaat qiluvchi faol shaxs sifatida gavdalanmoqda.

Shoirning "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar" to'plamiga kiruvchi "Erlar va qizlar lapari" she'ridagi erkak nutqidan olingan parchaga e'tibor qarataylik:

O'qumaslar bizni qizlar ma'rifatsizlar,
O'z holidan xabarsiz bir oiladirlar.
O'zlari mahbus, qo'llari bog'lu domi g'aflatda,
Dillari sezmas, ko'zlari ko'rmas johiladirlar.

Ushbu she'rda ko'rinadiki, erkaklarning nutqida johillikka qarshi kurash bilan birga ma'rifatparvarlikka, ilmga chorlov hissi aks etgan.

Demak, Hamza lirikasida jo'shqinlik, kuch-qudrat, tashqi faollik, chaqiriq, kurash, uyg'onish ohangi erkaklar nutqiga xos degan xulosaga kela olamiz.

Hamza she'riyatida ayol qahramon nomidan keltiriladigan lirik nutq esa, aksincha, iztirob, ichki kechinmalar, ijtimoiy tengsizlik kabi muammolarni hamda mazlumlik hissini gavdalandirgan.

Xususan, yuqoridagi "Erlar va qizlar lapari"da keltirilgan ayollar nutqiga nazar tashlaydigan bo'lsak:

Nechuk dersiz bizni qizlar ma'rifatsizlar,
O'z holidan xabarsiz bir johiladirlar.
Bizni mahbus, qo'limizi bog'lu, ko'zni ko'r qilgan
Din xoini mozorinda xok iladirlar.

Ushbu lirik nutqdan ayollarning eskilik sarqitlaridan, mutaassib diniy tuzumdan ozor chekkani va shu yuzdan ilm-ma'rifatga yetisha olmayotgani gavdalangan. Yoki shu she'rdagi: **"Ruhoniylar, ota, onalar millatga mas'ul, Chunki bizning yo'limiz masdud, hech hurriyat yo'q"**, kabi misralardan esa o'sha zamondagi ijtimoiy tengsizlik, ota-onalarning qizlarni ilmga, ma'rifatga yo'llarini berkitishi orqali ularga aziyat berishlari ochib berilgan.

Quyida shoirning "Tursunoy marsiyasi" she'ridan olingan parchani tahlil qilamiz.

Menga motam tutib, qora bog'lamang,
Tengu to'shim nozik bag'rin dog'lamang,
Tursunoydek yovuq seving, singillar,
To'kis bilim ko'rmas turmush chog'lamang

Ushbu she'rda shuni ko'rishimiz mumkinki, erta turmush tufayli fojeaga yo'liqqan qizlar, ilm-ma'rifatdan mosuvo bo'lgan va turmush qiyinchiliklari oldida ojiz bolgan mazlumalarning holi bir qizning fojeasi orqali tasvirlangan.

Bundan tashqari Hamza ayollar nutqida uchraydigan nolish, zulm koʻrganlik hissi, jabrdiydalik kabi holatlar uchun “*netay*”, “*na deb*”, “*moʻlturladim*”, “*vafosiz yor*”, “*yoronlar*”, “*suyandim*”, “*uyaldim*”, “*qonga boʻyaldim*” kabi ritorik soʻroqlar, soʻz va birikmalarni qoʻllash orqali kuchli emotsiyani berish, ayollarning ichki holatlarini aks ettirishga erishgan.

Yuqorida taʼkidlaganimizdek, garchi Hamza lirikasida ayol va erkak nutqi bir qancha jihatlaridan farqlansada, ammo ilmga intilish, maʼrifatparvarlik ruhi har ikki jins vakillarining nutqida mavjuddir. Lekin ularning farqi shundaki, erkaklar nutqida ayollarni ilmsizlikda ayblab ularni bilim olishga daʼvat etsa, ayollar nutqida bilim olishda erksizlik, din mutaassiblari tomonidan, ota-onalari, umuman olganda, jamiyat tomonidan ularga yoʻl qoʻyilmagani taʼkidlanadi. Ijodkorning “Oy, singlim, oy, ogʻam” sheʼrida ham fikrimizni isbotini koʻrishimiz mumkin.

-Oʻqusangiz erdi kirib maktablara,
Tonurdingiz haqingizni, oy singlim, ilm oʻqub.
-Boray desam oʻqumoqqa johil otam
Qoʻymas netay, etogimdan, oy ogʻam, ushlab, tortub.

Xususan Hamza sheʼriyatida ayollar nutqining koʻp qismini ilmga tashnalik ammo bu yoʻlda turli toʻsiqlarga, qarshiliklarga duch kelishlari aks etadi. Quyida Hamza nazmida erkak va ayol nutqining farqlarini tizimli oʻrganish natijasida jadval shakllantirildi:

Mezon	Erkak nutqi	Ayol nutqi
Yoʻnalish	Ijtimoiy (tashqi)	Ruhiy (ichki)
Ohang	Daʼvat, chaqiriq	Iztirob, shikoyat
Obraz	Faol, kurashchi	Jabrdiyda, ojiz
Emotsiya	Joʻshqin	Hissiy, dramatic

Jadvaldan kelib chiqqan holda Niyoziy sheʼriyatida erkak va ayol qahramon nutqi oʻzaro gender asosida differensiallashgan deya olamiz. Hamza oʻz lirikasida erkak va ayol nutqining parallel ravishda qoʻllash natijasida gender jihatdan farqlanish bilan birga badiiy matnda koʻp ovozlilik- polifoniyaning hosil boʻlayotganini ham koʻramiz. “Baxtinning dialogizm va polifoniyaga oid qarashlariga koʻra, badiiy matnda bir nechta mustaqil ovozlilar, ular oʻzaro teng huquqli holda ifodalaniladi” [6] Bundan anglashimiz mumkinki, polifoniya bir nechta va har biri mustaqil hamda bir-biriga boʻysunmaydigan ovozlardir. Bu ovozlilar turli ijtimoiy hamda ruhiy holatlarni ifodalaydi va teng huquqli boʻladi.

XULOSA

Mazkur maqolada Hamza sheʼriyatida erkak va ayol nutqi ilk bora tizimli tarzda gender yondashuv asosida tadqiq qilindi. Olib borilgan tadqiqot natijasida ijodkor sheʼrlarida erkak va ayol qahramonlari nutqi ajratilib, ularning bir nechta gʻoya va mazmun asosiga qurilgani aniqlandi. Erkak nutqi ijtimoiy faollik, daʼvat bilan xarakterlansa, ayol nutqi ichki kechinmalar va emotsiyani gavdalantiradi. Ushbu farqlar esa lirik qahramon nutqining gender identitet asosida yuzaga kelganini namoyon qiladi. Shu bilan birga, bu nutqlar asosida shoir ijodida polifoniyaning yaʼni nutqda koʻp ovozlilik yuzaga chiqmoqda. Bu hodisa Hamza ijodining serqirra va noyob ekanligini, ijodkor mahoratini koʻrsatmoqda. Kelgusida gender yondashuv asosida shoir ijodini boshqa jadid ijodkorlarning sheʼrlari bilan qiyosiy oʻrganish oʻrinli boʻladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Куронов Д. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Академнашр, 2010.
2. Kinnahan, L.A. Lyric Interventions: Feminism, Experimental Poetry and Contemporary Discourse. Cambridge University Press, 2005.
3. Хамза Хақимзода Ниёзий. Тола асарлар топлами. I том. - Тошкент: Фан, 1988.
4. Хамза Хақимзода Ниёзий. Шеърлар, педагогик рисолалар, насрий асарлар топлами. II том. - Тошкент: Фан, 1988.
5. Хамза Хақимзода Ниёзий. Замон ичра. - Тошкент: Гафур Гулом нашриёти, 1989.
6. Mirzayeva A. Transtekstuallikning zamonaviy adabiyotshunoslikda o‘rganilishi. // Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. – 2024. 2-son. -B.81.